



**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "O'N SAKKIZGA KIRMAGAN  
KIM BOR" ASARINING TAHLILI**

*Termiz davlat universiteti talabasi*

*Ochilova Marjona Olimjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adib Shukur Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor? " qissasidagi qahramonlar ma'naviyati, dunyoqarashi va davrning ijtimoiy masalalari va muammolari qay tarzda tasvirga olinganligi haqida fikr yuritiladi. Yozuvchi qissalarida o'zbekka xos belgilar qanday aks ettirilgani, bbunda qanday badiiy-estetik tamoyilga tayanilganligi haqida ma'lumot berilgan. Qissaning bugungi kun yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni va kitobxonlik masalasi qissa qahramonlarining ma'naviyatiga ne chog'li ta'sir ko'rsatgani ko'rib chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** Muhabbat, oqibat, adashish va qismat. Sangardak, Yetim tog`, Farhod tog`i, Ketmon chopti.

Bu dunyoda insonning nomi to`rt narsada abadiy qoladi, bular yozilgan kitoblarida, qurilgan imoratlarida, ekilgan daraxtlarida hamda komil farzandlarni tarbiyalashda. Shukur Xolmirzayev ana shunday insonlardan biri edi. Bugungi adabiyotni Shukur Xolmirzayevsiz tessavur qilib bo`lmaydi. Shukur Xolmirzayev o`zbek adabiyotimizda tamomila yangicha mакtab qurdi. Bu yangicha maktabni u o`zicha yaratgani yo`q, u dunyo adabiyotini ikir-chikirigacha o`rgandi, izlandi va chuqur izlanishlar natijasida yangicha bir maktabni barpo etdi va bu maktab proza adabiyotida chuqur bir tarix bo`lib muxrlanib qoldi. Prozani bir qarashda A.Qodiriydan o`rgansakda, bir qarashda Shukur Xolmirzayevdan o`rganish kerak. XX asr o`zbek hikoyachiligi an'analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so'nggi



choragida yanada boyitdi. O'zbek hikoyachilagini yangi bosqichga ko'targan uning qator asarlari bu janrning keng miqyosdagi manaman degan namunalari bilan haqli ravishda bo'ylasha oldi. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari oddiy dardning ulug`vor ko`rinishlaridir. Adibning aksar qahramonlari oddiy kun kechirayotgan, bir qarashda, Vatanga, millatga, umuminsoniyatga daxli yo`q odamlardir. Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o`qdirki, u ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, Vatanga, bani basharga daxldor dardlarni ko`ra biladi, tasvirlay oladi, ko`rsatib bera oladi. Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo'ylik, shablon iboralarni deyarli uchratmaysiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi.

Asar kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o'tkazishdan cho'chimaydi va ko'pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi. O'zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarni qalamga oladi. Bu qahramonlar o'zga yozuvchilarning qahramonlariga o'xshamagan: goh do'lvor, goh to'pori, goh dag'al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki dunyosi o'ziga xos, ruhan teran, insonparvar, e'tiqodidan qaytmaydigan, shularga munosib ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar o'zligini, millatini, yurt tuprog'i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo'yadilar. Adolat uchun, haqiqat uchun kurashadilar. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvozlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko'pincha, ichdan jozibali, istarali, mehrtortar bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muammolarning badiiy tahliliga qaratiladi. Yozuvchi qahramonlari asar g'oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og'ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining



badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi.

Yuksak badiiy asar haqqoniy hayot aksidir. Shuning uchun ham o`quvchi o`zini topadi, o`zining aksini ko`radi, hayajonlanadi, quvonadi, yig`laydi, iztirobga tushadi. Bir so`z bilan aytganda, asar qahramonlari bilan yashaydi. Shukur Xolmirzayevning

„O'n sakkizga kirmagan kim bor» qissasi o`quvchi qalbiga ana shu tazda kirib boradi. Uning bu qissasi yigirma besh yoshli yozuvchiga o'zbek kitobxonlari orasida shuhrat keltirdi. Muhabbat, oqibat, adashish va qismat, hayotga intilish va yoshlar xarakterining chiniqishi muammolariga bag'ishlangan bu qissa, mana, deyarli qirq yildan buyon, yoshlar tomonidan sevib o'qiladi. Bunday masalalarga bag'ishlangan asarlar o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham oz emas. Lekin „O'n sakkizga kirmagan kim bor» qissasi ulardan nainki sujet, qahramonlarning qismat-taqdiri, balki ularning o'ziga xos tarzda tepib turgan yuragidan taralayotgan nuring yozuvchi qalami ostida xuddi muhabbatning o'zidek samimiy ohanglarda jaranglashi jihatidan diqqatni tortadi. Garchi qissaning sarlavhasi asarning sevgi, muhabbat haqida ekaniga ochiq ishora qilgan bo`lsada, ammo qissaning dastlabki voqealarida ikki ko`ngli yarim bolalarning kechinmalari haqida so`z yuritilgani o`quvchini o`yga to`ldiradi.

Yozuvchi qissada urushning insonlar taqdirida qoldirgan og`riqli iztiroblarini, ayniqsa Muslima buvi obrazi talqinida ochib berishga harakat qiladi. Muslima buvining tur mush o`rtog`i urushda dushmanlar bilan kurashda halok bo`lganda, u endigina yigirma besh yoshda edi. Ikki bolasi qizi Zaynabxon, o`g`li Abdurkarim. Urush bir yosh juvонни erta beva qoldirganini, hali ota mehriga to`ymagan norasidalarni yetimlik dardiga yo`liqtirganini, bir oila misolida butun bir halqni boshiga qora kun tushirganini ko`rsatiladi. Urush bir emas, ikki bor soya solib eng yaqinlardan judo bo`lgan Muslima buvining qalb tug`yonlarini o`qigan o`quvchi



beixtiyor urushni qoralaydi. Muslima buvining yakka-yu yolg`iz o`g`li fashistlar bilan bo`lgan jangda halok bo`lishi, shu mushtakkina kampirni taqdirda nolimay, irodasiga suyanib yashagani mohirona ko`rsatib berilgan. Yana bir o`rinda Hojiyev domladan eshitgan “Iskandar yurishi” haqidagi hikoyasida ham urushning salbiy oqibatlarini ko`rsatib o`tadi. O`quvchi ushbu qissani o`qish jarayonida yozuvchining o`zi yashab o`tgan hududning tarixini qanchalik yaxshi bilganini guvohi bo`ladi. Ayniqsa, Sangardak, Yetim tog`, Farhod tog`i, Ketmon chopti kabi joy nomlarining atalish tarixini qahramonlar tilida o`quvchiga yetkazishga harakat qilingan.

Farhod suv chiqaraman deb, shu shu tog`ga chiqqanmish. O`shanda Sangardagimiz quruq cho`l ekan. Farhod toqqa bir ketmon urib, mundoq pastga qarasa, pastga katta daryo oqayotganmish. Bu daryo qayerdan paydo bo`ldi? Farhod bilmadiki, bu o`sha Yosuman kampir yoyib qo`ygan bo`yralar ekan. U Farhodning ko`ziga daryoday bo`lib ko`rinibdi. Keyin Farhod shartda yengildim deb, Yosuman bilan shart bog`lagan-da, o`zini o`zi o`ldiribdi. Tog`ning nomi shundan qolgan - Farhod, Farhodning ketmon urgan yeri esa - Ketmon chopti. Qissaning bosh qahramonlarini sinchkovlik bilan kuzatsak, sevgi uchburchagidagi qahramonlar ruhiyatini yurakdan his etamiz. Yozuvchining yutug`i ham ana shunda deb hisoblash mumkin. Bu qissa muhabbatni tarannum etuvchi boshqa asarlardan farqi shundaki, undagi qahramonlarning xarakter hususiyati, ularning dunyoqrashi, ma`naviyati ular o`qigan kitoblarga borib taqaladi. Dastavval ikki yetimning taqdiri birlashishi: Jamshidning onasi bo`lmish Zaynabxonning Tilovning otasi Jalolovga turmushga chiqishi bilan bir- biriga yot, qoni boshqa bolalarining aka-uka bo`lishi syujeti orqali Shukur Xolmirzayev o`quvchini voqealar ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatishga chorlaydi. Azaldan xalq orasida “o`gay ona,” o`gay ota”larga nisbatan salbiy munosabatda bo`lganlar. Ammo bu qissada Shukur Xolmirzayev ushbu so`zlarga salbiy qarashni inkor etib ularga ijobjiy qarash lozimligini ko`rsatib berdi. ”O`gay ona” “o`gay otalaradan”



ham hamisha yomonlik kutish yo ularni qoralash noo`rinligini, xalqimiz orasida garchi tug`ishgani bo`lmasada, o`sha aytayotgan o`gay otalar orasida ham mehribon, jonkuyarlar borligini Zaynabxon va Jalolovlar orqali gavdalantirdi.

Asarda bir necha kitoblar nomi, ulardagi qahramonlar tilga olingan. Asardagi qahramonlar bilan bir-birini taqlid qilib chaqirishi, bolalarning o`sha qahramonlarga o`xshagisi, ayniqsa, Umidaning Katerina, Jamila va Ninalarday baxti qaro, ezilgan, tahqirlangan va oqibat, biri o`zini suvga tashlagan, biri zahar ichgan, biri telbalik kasaliga mubtalo bo`lgan obrazlarni o`ynashni orzu qilishi, so`ng negadir o`ziga achchiq qilib ham, shaxsan o`zining ularday bo`lgisi kelayotganligi yozuvchni tomonidan mohirona tasvirlangan bo`lib qahramon hayoti ham shu qahramon hayoti kabi yakun topadi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev ”O’n sakkizg kirmagan kim bor” qissasi.
2. Aim.Uz. Sh.Xolmirzayev.
3. Xolmirzayev Sh.Ijodkor adolatli bo‘lishi kerak! O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2012 yil, 12.
4. Xolmirzayev Sh. Jahonbop asar yoza olaman, lekin. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002, 48.